

FARG'ONA VILOYATI SHEVASIDA OILA A'ZOLARI VA QARINDOSHLARNI CHAQIRISHDA ISHLATILADIGAN SO'ZLAR

Komilova Ruxshona Ahrorbek qizi

University Of Business and Science universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19394554>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg'ona viloyati shevasida qo'llaniladigan qarindosh-urug' nomlari tahlil qilinadi. Maqolada qarindoshlik atamalarining leksik xususiyatlari, ularning adabiy tildan farqli jihatlari hamda shevaga xos fonetik o'zgarishlar yoritilgan. Jumladan, ota-ona, aka-uka, opa-singil, bobo-buvi va quda-andachilikka oid nomlarning turli variantlari misollar asosida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu atamalarda uchraydigan tovush almashuvi, unli o'zgarishi va so'z shakllarining soddalashuvi kabi hodisalar izohlangan. Tadqiqot natijalari Farg'ona shevasining o'ziga xosligini hamda qarindoshlik terminlarining milliy madaniyatdagi o'rnini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *dialektologiya, o'zbek dialektologiyasi, lahja, dialect, dialektizm, sheva, Farg'ona shevasi, qarindosh-urug' nomlari.*

Abstract. This article analyzes kinship terms used in the dialect of Fargona region. The article examines the lexical features of kinship terminology, their distinctions from the literary language, and dialect-specific phonetic changes. In particular, various forms of terms related to parents, siblings, grandparents, and in-law relationships are discussed with illustrative examples. The study also explains such phenomena as sound alternation, vowel shifts, and simplification of word forms found in these terms. The research findings demonstrate the distinctive character of the Fargona dialect and the role of kinship terminology in national culture.

Keywords: *dialectology, Uzbek dialectology, dialect, dialectism, subdialect, Fargona dialect, kinship terms.*

Аннотация. В данной статье анализируются названия родственных отношений, употребляемые в говоре Фергана области. В статье рассматриваются лексические особенности терминов родства, их отличия от литературного языка, а также фонетические изменения, характерные для данного говора. В частности, на конкретных примерах рассмотрены различные варианты наименований, связанных с родителями, братьями и сёстрами, дедушками и бабушками, а также со свойственниками. Кроме того, объясняются такие явления, как чередование звуков, изменение гласных и упрощение словоформ, встречающиеся в данных терминах. Результаты исследования свидетельствуют о самобытности Фергананского говора и роли терминов родства в национальной культуре.

Ключевые слова: *дialeктология, узбекская диалектология, наречие, диалект, диалектизм, говор, Фергананский говор, названия родственных отношений.*

O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, uning tarkibida ko'plab shevalar mavjud .

Har bir hududning o'ziga xos nutq xususiyatlari, talaffuz shakllari va leksik boyligi mavjud. Ana shunday shevalardan biri Farg'ona viloyati shevasidir. Farg'ona viloyati shevasi o'ziga xos fonetik, leksik hamda grammatik xususiyatlarga ega.

Shevalarda ayniqsa qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi so'zlar juda boy va rang-barangdir. Chunki o'zbek xalqida oila, qarindoshlik va urug'chilik munosabatlari qadimdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shu sababli turli qarindoshchilik darajalarini ifodalash uchun ko'plab so'zlar ishlatilgan. Bu so'zlar ba'zan adabiy til bilan bir xil bo'lsa, ba'zan esa faqat shevaga xos shakllarda uchraydi.

Farg'ona viloyati, xususan Toshloq, Yazavon Rishton va boshqa tumanlar shevalarida qarindoshlarni chaqirishda ishlatiladigan so'zlar alohida leksik qatlamni tashkil etadi. Ushbu maqolada Farg'ona shevasida oila a'zolari va qarindoshlarni chaqirishda ishlatiladigan so'zlar hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Qarindoshchilik atamalarining tilshunoslikdagi o'rni

Tilshunoslikda qarindoshlikni bildiruvchi so'zlar qarindoshchilik terminlari yoki kinship terms deb ataladi.

Bu atamalar odamlarning o'zaro oilaviy va qarindoshlik munosabatlarini ifodalaydi.

O'zbek tilida qarindoshchilik atamaları juda qadimiy hisoblanadi. Ular xalqning turmush tarzi va urf-odatları, ijtimoiy munosabatlari bilan chambarchas bog'liq.

Qarindoshchilik terminlari nafaqat qarindoshchilik darajasini bildiradi, balki hurmat, yaqinlik, mehr kabi tuyg'ularni ham ifodalaydi.

Shevalarda bu so'zlar yanada ko'p shakllarda uchraydi.

Masalan, adabiy tilda ishlatiladigan "aka", "opa", "tog'a" kabi so'zlarning turli shevalarda boshqa variantlar ham mavjud.

Farg'ona shevasida qarindoshlarni chaqirishda ishlatiladigan so'zlar xalqning kundalik nutqida faol qo'llanadi va ular o'ziga xos fonetik shakllarga ega.

Farg'ona shevasida ota ona nomlari

Namangan shevasida ota va onani chaqirishda quyidagi so'zlar ishlatiladi:

Dada-ota ma'nosida ishlatiladi.

Aya - ona ma'nosida ishlatiladi.

Oyi - ona uchun yana bir ishlatiladigan shakl.

Masalan:

Dada, men o'qishga ketyapman.

Aya, ovqat tayyormi?

Bu so'zlar adabiy tilga ham yaqin bo'lsa-da, talaffuz jihatidan shevaga xos ohang bilan aytiladi.

Aka -uka va opa- singillarni chaqirish

Farg'ona shevasida aka- uka va opa- singillarni chaqirish uchun quyidagi so'zlar ishlatiladi:

Aka - katta erkak birodar.

Uka- kichik erkak birodar.

Opa - katta ayol birodar.

Singil- kichik ayol birodar.

Shevada ba'zan quyidagi shakllar ham uchraydi:

Akajon

Ukajon

Opajon

Singiljon

Bu soʻzlar hurmat yoki mehr ifodalash uchun ishlatiladi.

Masalan:

Opajon, siz qayerga ketyapsz?

Akajon, menga yordam berib yuboring.

Opoqi va buvalarni chaqirish

Fargʻona shevasida katta yoshdagi qarindoshlarga hurmat bilan murojaat qilish odat tusiga kirgan. Opoqi va buvalarni chaqirish uchun quyidagi soʻzlar ishlatiladi.

Opoqi - otaning yoki onaning dadasi

Buva - otaning yoki onaning onasi

Masalan:

Opoqi, sizga choy opkeldim.

Amaki, togʻa, xola va amma atamaları

Fargʻona shevasida ota-onaning aka - uka va opa- singillarni chaqirishda quyidagi soʻzlar ishlatiladi:

Amaki - otaning ukasi yoki akasi.

Togʻa - onaning akasi yoki ukasi.

Xola- onaning singlisi yoki opasi.

Amma - otaning opasi yoki singlisi

Masalan:

Amaki, siz qachon keldingiz ?

Amma, biznikiga mehmon boʻlib keling.

Bu soʻzlar oʻzbek xalqida juda hurmat bilan ishlatiladi.

Jiyan va boshqa qarindosh nomlari .

Fargʻona shevasida quyidagi qarindoshchilik atamaları ham uchraydi:

Jiyan - opa -singil yoki aka - ukaning farzandi.

Kelin- ogʻilning hotini.

Kuyov- qizning eri.

Quda - kelin yoki kuyov tomon qarindoshlari.

Masalan:

Jiyanlarim mehmon boʻlib kelishdi.

Kelin juda odobli qiz ekan.

Shevalarda qarindoshchilik atamalarının oʻziga xosligi Fargʻona shevasida qarindoshlarni chaqirish soʻzlari koʻpincha:

mehr ifodalaydi

hurmat ifodalaydi

yaqinlikni koʻrsatadi

Masalan, katta yoshdagi odamga baʼzida qarindosh boʻlmasa ham :

Aka

Opa

Uka

Ota

Xola

deb murojaat qilish mumkin.

Bu oʻzbek xalqining hurmat va odobga asoslangan madaniyatini koʻrsatadi.

Xulosa

Farg‘ona viloyati shevasida qarindoshlik atamaları juda boy va rang-barang hisoblanadi.

Bu so‘zlar xalqning tarixiy turmushi, madaniyati va ijtimoiy munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq.

Oila a‘zolari va qarindoshlarni chaqirishda ishlatiladigan so‘zlar nafaqat qarindoshchilik darajasini bildiradi balki hurmat, mehr va yaqinlikni ham ifodalaydi.

Farg‘ona shevasidagi bunday so‘zlar o‘zbek tilining boyligini va xalqning madaniy merosini aks ettiradi.

Kelajakda o‘zbek shevalarini chuqur o‘rganish orqali xalq tilining yanada ko‘plab qimmatli xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. – 87 b.
2. Begmatov E. O‘zbek tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – 224 b.
3. Borovkov A.K. Leksika sredneaziatskogo tefsira XII–XIII vv. – Moskva: Nauka, 1963. – 366 s.
4. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, leksikologiyasi va leksikografiyasining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. – 168 b.
5. Ismoilov H. O‘zbek xalq shevalarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1977. – 136 b.
6. Kononov A.N. Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazyka. – Moskva–Leningrad: AN SSSR, 1960. – 447 s.
7. Nafasov T. O‘zbek shevalarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981. – 240 b.
8. Raximov S. Namangan viloyati shevalarining fonetik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1994. – 112 b.
9. Reshetov V., Shoabduraxmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – 231 b.
10. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 399 b.
11. Yunusov R. O‘zbek shevalari leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1975. – 184 b.
12. Zikrillaev G. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. – 248 b.